

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIK MA'LUMOTLARI MILLIY BA'ZAS(LEX.AI)

Hasanov Eldor

Toshkent davlat yuridik universitet talabasi

e-mail:hasanoveldor500@gmail.com

Annotatsiya: *O'zbekiston Respublikasining rasmiy huquqiy axborot tizimi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (Lex.ai)ning mazmuni, tuzilishi va amaliy ahamiyati. Lex.ai platformasi davlat tomonidan yaratilgan bo'lib, unda barcha normativ-huquqiy hujjatlar — qonunlar, farmonlar, qarorlar, kodekslar va idoraviy hujjatlar yagona elektron bazada jamlangan. Ushbu tizimning hujjatlarni izlash, ularning tahrirlarini solishtirish, o'zgarishlar bilan tanishish va huquqiy ma'lumotlarga tezkor kirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonunda bu u qonun davlat xizmatlarini raqamlashtirish va ochiq ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha asosiy huquqiy baza hisoblanadi.*

Lex.ai ushbu qonun doirasida davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlovchi elektron huquqiy platforma sifatida ishlaydi. Shuningdek, Lex.ai ning huquqiy madaniyatni yuksaltirish, davlat boshqaruvi jarayonlarini optimallashtirish hamda foydalanuvchilarga ishonchli va yangilangan ma'lumot taqdim etishdagi o'rni ko'rsatib beriladi. Maqola ushbu texnologiyalarni samarali joriy etish uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: *Lex.ai, qonunchilik ma'lumotlari, huquqiy axborot tizimi, elektron hukumat, normativ-huquqiy hujjatlar, raqamlashtirish, ochiqlik, shaffoflik, huquqiy madaniyat.*

KIRISH

Hozirgi kunda davlat boshqaruvi jarayonlarini raqamlashtirish, huquqiy axborotdan foydalanishni takomillashtirish va normativ-huquqiy hujjatlarning ochiqligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.⁴⁸ Shu maqsadda yaratilgan Lex.ai – qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi mamlakatning rasmiy huquqiy axborot tizimi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur platforma qonunlar, farmonlar, hukumat qarorlari, kodekslar hamda idoraviy hujjatlarni yagona elektron makonda jamlash orqali fuqarolar va mutaxassislar uchun ishonchli, aniq va yangilangan huquqiy ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Lex.ai tizimining joriy etilishi huquqiy ma'lumotlarni olish jarayonini soddalashtirib, ularning amaldagi tahrirlarini tezkor topish, o'zgarishlar tarixini ko'rish, hujjatlarni solishtirish kabi muhim funksiyalarni yo'lga

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi. 2023
<https://lex.uz/docs/-6445145>

qo'ydi. Bu esa nafaqat yuridik soha mutaxassislari, balki keng jamoatchilik uchun ham huquqiy savodxonlikni oshirishda katta imkoniyat yaratmoqda. Shuningdek, mazkur tizim "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonunda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlab, davlat organlari faoliyati ochiqligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Uslublar

Ushbu maqolada nazariy uslubdan foydalanilib, Lex.ai qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasining huquqiy asoslari, yaratilish zarurati va uning davlat boshqaruvidagi o'rni nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Mazkur uslub orqali "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonun⁴⁹, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonun⁵⁰ hamda boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarning nazariy qoidalari o'rganildi. Lex.ai platformasining huquqiy madaniyatni rivojlantirishdagi ahamiyatini, huquqiy axborotning ochiqligi va shaffofligini ta'minlashdagi rolini, shuningdek, davlat organlarining elektron boshqaruvga o'tishi jarayonida mazkur tizimning tutgan o'rnini ilmiy-nazariy asoslash imkonini berdi.

Tahlil davomida huquqiy axborot tizimlari rivojining umumiy konsepsiyalari, raqamli huquqiy infratuzilmaning nazariy talablari va zamonaviy elektron axborot tizimlarining huquqiy modeli asos sifatida qo'llanildi.⁵¹

Natijalar

Lex.ai qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi O'zbekiston qonunchilik tizimida huquqiy axborotga tezkor, ishonchli va aniq kirishni ta'minlaydigan eng muhim raqamli platformalardan biridir.⁵² Lex.uz O'zbekistondagi eng yirik ma'lumotlar bazasi bo'lib, ushbu bazada huquq sohasiga oid deyarli barcha ma'lumotlarni topa olasiz. Yana bir qulay jihati borki siz ushbu bazada ma'lumotlarning eski tahrirdagisini ko'rishingiz mumkin. Xosh ushbu funktsiya bizga nimni taqdim etadi? Ushbu funktsiyadan foydalanib siz eski va yangi tahrirdagi qonunlarni bir biri bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lasiz. Bu sizning huquqiy savodxonligingizni oshirishni yanada mukamallashtiradi.

Muhokama

Lex.ai qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi O'zbekistonning huquqiy tizimida muhim o'rin egallab borayotganini amaliy jihatdan ko'rish mumkin. Ushbu platformaning joriy etilishi huquqiy axborotdan foydalanish jarayonini sezilarli darajada soddalashtirib, foydalanuvchilarga huquqiy ma'lumotlarga tezkor, ishonchli va aniq tarzda kirish imkonini yaratganligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda Lex.ai huquqiy axborot bilan ishlashda eng qulay va samarali elektron tizimlardan biri sifatida e'tirof etilib kelmoqda. Avvallari normativ-huquqiy hujjatlarni izlash, ularning eski tahrirlarini topish yoki qaysi o'zgarishlar kiritilganini

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi. "Elektron hukumat to'g'risida" (2015)

<https://lex.uz/mact/-2833860>

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi" (2012)

<https://lex.uz/docs/-5378966>

⁵¹ Karimov A. "Raqamli huquqiy tizimlar va ularning amaliyoti" (2021)

<https://library-tsul.uz/axborot-tizimlari-karimov-a-2021/>

⁵² O'zbekiston Respublikasi qonunchilik milliy bazasi Lex.AI

<https://ai.lex.uz/>

aniqlash ancha murakkab jarayon bo'lgan. Lex.ai platformasi esa ushbu muammolarni bartaraf etib, hujjatlarning eski va yangi tahrirlarini solishtirish imkoniyatini yaratdi.

Mazkur funksiya huquqiy savodxonlikni oshirishda va hujjatlar bilan ishlashda xatolarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Lex.ai nafaqat yuridik soha mutaxassislari, balki oddiy fuqarolar uchun ham qulay platforma hisoblanadi.

Tizimning sodda va tezkor qidiruv imkoniyatlari yuridik bilimga ega bo'lmagan shaxslarga ham zarur huquqiy ma'lumotni oson topish imkonini beradi. Bu holat huquqiy axborotning ochiqligi va ommabobligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonunning 3-moddasi hamda 3-bobida (18–20-moddalar) belgilangan davlat xizmatlarini elektron shaklda ko'rsatish va raqamlashtirishga doir vazifalar Lex.ai platformasi orqali amalda bajarilayotganini ko'rish mumkin.

Mazkur tizim davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini oshirishga, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilib kelmoqda. Lex.ai davlat boshqaruvida raqamli yondashuvni kuchaytiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Lex.ai platformasining ustunliklar.

1. Huquqiy ma'lumotga tezkor kirish imkoniyati- Lex.ai orqali istalgan qonun, qaror, farmon yoki kodeksni bir necha soniyada topish imkoniyatini beradi va istalgan joyda ko'rishimiz mumkin. Bu huquqiy izlanish jarayonini sezilarli darajada yengillashtirilganligini ko'rishimiz mumkin.

2. Amaldagi tahrirlarni aniq ko'rsatadi- Platforma har bir hujjatning joriy tahriri, eski tahriri va kiritilgan o'zgartirishlar tarixini alohida ko'rsatadi. Bu esa adashish va noto'g'ri ma'lumotni ishlatish ehtimolini kamaytirishga yordam beradi.

3. Oddiy foydalanuvchi uchun ham qulayliklar- Barcha fuqarolar uchun Lex.ai foydalanishini sodda va tushunarli qilib qo'ydi. Yuridik bilimga ega bo'lmagan shaxs ham kerakli hujjatni bimalol topa oladi.

4. Mutaxassislar uchun vaqt tejaydi- Advokatlar, yuristlar va talabalar uchun hujjatlarni ko'p vaqt sarflamasdan qidirish, solishtirish, ko'rib chiqish imkonini beradi.

Bu ish samaradorligini yanada oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Lex.ai qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi O'zbekiston Respublikasida huquqiy axborot tizimini raqamlashtirish va takomillashtirish yo'lidagi muhim amaliy qadam hisoblanadi. Ushbu platforma orqali normativ-huquqiy hujjatlarga tezkor, ishonchli va ochiq kirish imkoniyatining yaratilgani fuqarolar hamda mutaxassislarning huquqiy savodxonligini oshirishga sezilarli darajada hissa qo'shib kelmoqda.

Lex.ai tizimi hujjatlarning amaldagi va eski tahrirlarini solishtirish, o'zgarishlar tarixini ko'rish hamda huquqiy ma'lumotlarni qulay tarzda izlash imkonini berishi bilan an'anaviy usullarga nisbatan katta ustunlikka ega bo'lmoqda.

Shuningdek, “Elektron hukumat to’g’risida”gi qonunda belgilangan davlat xizmatlarini raqamlashtirish, huquqiy axborotning ochiqligi va shaffofligini ta’minlashga doir vazifalarning amaliy ijrosini ta’minlayotgan samarali elektron platforma sifatida namoyon bo’lmoqda.

Mazkur tizim davlat organlari faoliyatida raqamli boshqaruvni rivojlantirish, huquqiy xatolarni kamaytirish va axborot bilan ishlash madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lex.ai platformasini yanada rivojlantirish va uning imkoniyatlaridan keng foydalanish huquqiy tizim samaradorligini oshirish va fuqarolarning davlatga bo’lgan ishonchini mustahkamlash hamda zamonaviy elektron hukumat modelini shakllantirishga xizmat qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.
<https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O’zbekiston Respublikasi. “Normativ-huquqiy hujjatlar to’g’risidagi” Qonun. 2012. <https://lex.uz/docs/-5378966>
3. O’zbekiston Respublikasi. “Elektron hukumat to’g’risidagi” Qonun. 2015.
<https://lex.uz/mact/-2833860>
4. Karimov A. “Raqamli huquqiy tizimlar va ularning amaliyoti”. 2021.
<https://library-tsul.uz/axborot-tizimlari-karimov-a-2021/>
5. O’zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi -Lex.ai.
<https://ai.lex.uz/>